

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

UMURZAKOVA XALIMA XABIBULLAYEVNA

TIBBIYOTDA QO‘LLANILADIGAN IPAKLI BOG‘LOVCHI
MAHSULOTLARNI YANGI TURLARINI YARATISHNING ILMIY-
TEXNOLOGIK ASOSLARI

05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi
va xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent - 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)
Contents of abstract of doctoral dissertation (DSc)

Umurzakova Xalima Xabibullayevna

Tibbiyotda qo'llaniladigan ipakli bog'lovchi mahsulotlarni yangi turlarini yaratishning ilmiy-texnologik asoslari.....3

Умурзакова Халима Хабибуллаевна

Научно-технологические основы разработки нового ассортимента шелковых перевязочных материалов, используемых в медицине.....33

Umurzakova Khalima Khabibullaevna

Scientific and technological foundations for the creation of new types of silk dressings for medical use65

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....69

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

UMURZAKOVA XALIMA XABIBULLAYEVNA

TIBBIYOTDA QO‘LLANILADIGAN IPAKLI BOG‘LOVCHI
MAHSULOTLARNI YANGI TURLARINI YARATISHNING ILMIY-
TEXNOLOGIK ASOSLARI

05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi
va xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent - 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/T676 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Alimova Xalimaxon

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kadirova Dilfuza Neymatovna

texnika fanlari doktori, professor

Valiyev Gulam Nabidjanovich

texnika fanlari doktori, professor

Batirova Aziza Negmurotovna

qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc)

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "03" sentyabr soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent, Shoxjahon ko'chasi, 5. Tel.: (+99871) 253-06-06; (+99871) 253-08-08; faks: (+99871) 253-36-17; titlp info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti Axborot – resurs markazida tanishish mumkin. (309-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100100, Yakkasaroy tumani, Shoxjahon ko'chasi, 5. Tel.: (+99871) 253-06-06; (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "10" avgust kuni tarqatildi.
(2026 yil "10" avgustdagi 309-raqamli reyestr bayonnomasi).



X.H.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yangi resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash orqali xom ipak olish va undan tayyorlangan mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ularning sifatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Dunyoning ipak yetishtiruvchi yetakchi davlatlari Xitoy, Hindiston, Braziliya, Janubiy Koreyada xom ipak ishlab chiqarish va ularni qayta ishlab mahsulotlar tayyorlash borasida ma'lum yutuqlarga erishilgan¹. Pilla chuvish va xom ipak ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi texnologiyalarni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarda tabiiy ipakdan tayyorlangan tibbiyot bog'lovchi mahsulotlarini qo'llanilishi ekspluatatsiya jarayonida iplarni jarohatga yopishishi tufayli insonga noqulayliklar tug'dirilishi kabi muammolarni yechish alohida ahamiyatga ega hisoblanmoqda. Shuning uchun ham, tabiiy ipakdan tibbiyot bog'lovchi mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini va xomashyo tayyorlash usullarini, shuningdek yangi assortimentlarini yaratish olimlar oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda pilla yetishtirish bilan shug'ullanib kelayotgan mamlakatlarda mavsumlarda sifatli pilla olish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilish orqali raqobatbardosh sof ipak tibbiyot bog'lov mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha keng ko'lamda yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo'nalishda takroriy yetishtirilgan mahalliy va xitoy duragayi pillalarini qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish ustivor hisoblanmoqda. Bu borada, tut ipak qurti pillalarini chuvishga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarilayotgan xom ipak sifatini hamda miqdorini oshirishga, tibbiyot bog'lov mahsulotlarini tayyorlashda texnologik jarayonlarga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ratsional parametrlarni o'rnatish hamda ilmiy asoslangan texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda pilla yetishtirishda takroriy usullarni rivojlantirish, sifatli xom ipak olish va qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish, resurstejamkor texnika va texnologiyalarni yaratish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...ipak mahsulotidan shoyi gazlamalari tayyor mahsulotlari, shuningdek import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish orqali 2026 yilga borib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish..."² kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, takroriy mavsumlarda yetishtirilgan tut ipak qurtining texnik talablarini qayta ishlab chiqish va ulardan sifatli xom ipak olish, ipak tibbiyot bog'lovchi mahsulotlari uchun xomashyo tayyorlash

¹ <https://inserco.org/en/statistics>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

texnologiyasini takomillashtirish hamda ishlab chiqarishga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni va 2017 yil 29 martdagi PQ-2856-son “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2019 yil 31 iyuldagi PQ-4411-son “Ipakchilik tarmog‘ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2020 yil 17 yanvardagi PQ-4567-son “Pillachilik tarmog‘ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi, 2023-yil 24-fevraldagi PQ-73-son “Ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorlarida belgilangan pilla yetishtirishda takroriy usullarni rivojlantirish, sifatli xom ipak olish va qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissetatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Mahalliy sharoitda takroriy yetishtirilgan ipak qurti pillalaridan xalqaro standart talablariga javob beradigan yuqori sifatli xom ipak olish texnologiyasini ishlab chiqarish ilmiy asoslarini, to‘qimachilik va yengil sanoat texnika-texnologiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar, eshilgan ipak iplarini yangi turlarini ishlab chiqish, shuningdek, takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari, oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Manchester University (Angliya), Ghent University (Belgiya), International Association of Silk Road University (Yaponiya), Kyoto University (Yaponiya), Dortmund Technical University (Germaniya), Sichuan University (Xitoy), University of Piraeus (Gretsiya), South Indian Textile Research Association (Hindiston), Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti, O‘zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti (O‘zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Xom ipak, eshilgan ipak, ipak mahsulotlari texnologiyalarini takomillashtirish va ipakli tibbiyot bog‘lov mahsulotlarini zamon talablaridagi turlarini yaratish borasida jahonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: sifatli xom ipak va eshilgan ipak iplarini, tibbiyot mahsulotlarini olishda texnologik jarayonlarini avtomatlashtirilgan tizimlari ishlab chiqilgan (Tajima, Yaponiya; Eton Ups, Shvetsiya; Schonenberger, Fransiya; Datatron, Germaniya); ipak chiqindilaridan suyuq gul qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarishni yangi usullari yaratilgan (Turbo va Heberlein, Shveysariya), xalqaro standart talablariga javob beradigan yuqori sifatli xom ipak, sifati yaxshilangan eshilgan ipak iplarini va tibbiyot ipak dokasi, tibbiyot ipak salfetkalari, tibbiyot binti va boshqa matolar yaratilgan (Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, O‘zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti, O‘zbekiston).

Dunyoda xalqaro standart talablariga javob beradigan sifatli ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarining texnologiyalarini yaratish hamda takomillashtirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: mahalliy sharoitda mavsumlarda takroriy yetishtirilgan pillalardan yuqori ipakchanlikka yetkazish asosida yuqori sifatli xom ipak olish texnologiyasini takomillashtirish; tabiiy ipak xususiyatlariga o'xshash iplarni yaratish; pillani chuvin texnologiyalarini takomillashtirish, pillaning muqobil o'lchamlarini aniqlash, yuqori sifatli xom ipak, ipakli mato va ipak tolali chiqindilaridan yangi tibbiyot mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning yangi turdagi assortimentlarini yaratish.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Pilla yetishtirish, xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va sifatli mahsulot olish muammolari bo'yicha bir qator taniqli xorijiy olimlar tadqiqot olib borishgan, jumladan, Lan Cheng, Zhi Li, S. Kumar Gupta, Bej G., Wang H., Chen S., Loreta D., Rajendran S., K.D.Rajat, Y.Zhiyong, M.Arumugam, L.Min, S.Gunze, N.Hazarika, C.Minano, H.Harada J.Mo, S.Pan, Ajmeri J., Islam S., Yarin A., M.Harfa, J.Rudvisaik, B.Frantisek, Sh.Ales, X.Cao, M.Gui, L.Wang, E.Timoshina, Fedorova N., S.D.Nikolayeva va boshqalar.

Ipak iplarini turlarini ko'paytirish, ipak eshish, yigirish, ipakchilik sohasida chiqindisiz texnologiyalarni takomillashtirish, zamonaviy dastgohlarda ip tayyorlash jarayonini tashkil etish uchun nazariy va amaliy asosni yaratish bo'yicha: Usenko V.A., Kukin G.K., Rubinov E.B., Burnashev R.Z., Xaimova R.M., Niyazaliyev M., Pozdnyakov G.S., Zikova F.V., Burnashev I.Z., Qodirov Sh.A. va hozirgi davrda Alimova X.A., Umarov Sh.R., Nasrillayev U.N, Tojiyev E.X., Axunbabayev O.A., Ikramov Z.I., Gulamov A.E., Islambekova N.M, Nabidjanova N.N., Axmedov J.A., Avazov K.R., Usmonova Sh.A., Zakirova D.X. kabi bir qator olimlar tadqiqotlar olib borganlar va bu soha ilmining rivojiga munosib hissa qo'shmoqda.

Lekin, hozirgacha ma'lum bo'lgan izlanishlarni inobatga olgan holda, takroriy yetishtirilgan pillalardan xalqaro standartning "3A", "4A" talablariga javob beraoladigan xom ipakni shakllanish texnologiyasini nazariy asoslarini, ulardan xomashyo tayyorlash usullarini takomillashtirib tabiiy ipakdan tibbiyot dokasi, bog'lovchi materiallar ishlab chiqishni va undan tibbiyot amaliyotida foydalanish, sinab ko'rish masalalarini tadqiq etish zarurligi aniqlandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining A-3-5 "Ipakning nanotexnologiyasi asosida mahsulotlarning raqobatbardosh yangi turlarini ishlab chiqarish usullari va texnologiyalarini yaratish" (2015-2017), F-A-2018-026 "Tabiiy ipakni va uning nanobo'lakchalarini qo'llab, tibbiyotda va maishiy ehtiyojlarda foydalaniladigan mahsulotlarni yangi turlarini ishlab chiqarish usullari va texnologiyalarini yaratish" (2018-2020), 92/14 "Tabiiy ipakdan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish" (2021), Jahon bankining REP-03032022/193 "Tibbiy maqsadlarda foydalanish uchun ipak chiqindilaridan antimikrob noto'qima mahsulotlar ishlab chiqarish" (2022-2024) mavzusidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: tabiiy ipakdan tibbiyotda qo'llaniladigan bog'lovchi mahsulotlarni yangi turlarini yaratish texnologiyasini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

adabiyot sharhlari asosida tibbiyotda qo'llaniladigan bog'lovchi mahsulotlarni turlari, ularni ishlab chiqarish holati va texnologiyalarini aniqlash istiqbollari;

Ipakchi-1 x Ipakchi-2 va mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy duragay pillalar qobig'ini texnologik xususiyatlarini aniqlash orqali xalqaro standartni "3A" va "4A" talablariga mos xom ipakni shakllanishida texnologik jarayonni nazariy tadqiqoti;

xom ipakni texnologik ko'rsatkichlarini tibbiyotda qo'llaniladigan bog'lovchi mahsulotlar ishlab chiqarish talablariga mosligini nazariy va amaliy asoslash;

tibbiyotda qo'llaniladigan ipakli bog'lovchi mahsulotlarni yangi turlarini ishlab chiqarishda xomashyo tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish;

to'qish jarayonida iplarni mustahkamligiga va uzilishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni nazariy tadqiq qilish hamda sifatli to'qima olish;

yangi turdagi ipakli tibbiyot mahsulotlarini namunalarini olish, ularni fizik-mexanik va gigiyenik xususiyatlarini o'rganish;

yangi turdagi ipakli bog'lovchi mahsulotlarni milliy standartini ishlab chiqish va asoslash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida mahalliy sharoitda boqilgan takroriy mavsumda yetishtirilgan Xitoy va Ipakchi-1 x Ipakchi-2 duragayi pillalari, ulardan chuvilgan 2,33; 3,23 tex li xom ipakdan ishlab chiqarilgan tibbiyot bog'lovchi mahsulotlari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida ipakdan yangi tibbiyot bog'lovchi mahsulotlari uchun xomashyo tayyorlash texnologiyalari hamda bu jarayondagi uslub va vositalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida iplar mexanikasi, tajriba analizi, matematik statistikaning natijalarni qayta ishlash, amaliy matematikaning kichik kvadratlar, xom ipakni ishlab chiqarish va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, tibbiyot bog'lovchi materiallarini ishlab chiqish va uni sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xom ipakni shakllanishida dastani pilla bilan ta'minlash kompensatsiya davrini qisqartirib, pilla ipi uzunligiga bog'liq chuvish tezligini nazariy tadqiqi asosida notekislikni kamaytirish orqali xalqaro standartning "3A" va "4A" sinfi talablariga mos mahsulot ishlab chiqish mumkinligi isbotlangan;

regression model asosida iplarni uzilishiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olib, buramlarni ratsional qiymatlari aniqlangan hamda eshilgan ipak iplarining mustahkamligi ta'minlangan;

yangi assortimentdagi ipakli bog'lovchi mahsulotlarini to'quv va trikotaj usulida ishlab chiqarish uchun eshilgan iplarni qaynatish, qo'shilish, buram berish sonlarini ratsional qiymatlarini ishlab chiqish orqali xomashyo tayyorlash texnologiyasi takomillashtirilgan;

bint to'qimasini shakllantirishda tanda iplarini uzilishiga ta'sir etuvchi ip zichlagich zarbasidan hosil bo'ladigan kuchlarni hisobga olib, regression tenglamalar tahlili asosida ip tarangligiga ta'sir etuvchi omillarni ratsional qiymatlari aniqlangan;

xom ipakdan bir nechtasini qo'shish, buram berish hamda eshilgan iplardan mato olish orqali yangi turdagi ipakli bog'lovchi mahsulotlarning milliy standarti ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

takroriy yetishtirilgan pillalardan "3A" va "4A" sinfiga mos xom ipak ishlab chiqarish mumkinligi isbotlangan va amaliyotga joriy etilgan;

tabiiy ipakdan tibbiyot bog'lovchi mahsulotlarini olish uchun xomashyo tayyorlash texnologiyasi yaratilgan, ishlab chiqarishga joriy etilgan;

ipakdan yangi tibbiyot bog'lovchi mahsulotlari namunalari olingan va ularning fizik-mexanik, texnologik, ekspluatatsion xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tajribalar ma'lumotlarini statistik ishlov orqali asoslanganligi, olingan tajriba natijalari parallel tajriba natijalariga mos kelishi, to'qima mato sifatiga ta'sir qiluvchi omillarning statistik tahlil qilinganligi hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati takroriy mavsumlarda boqilgan mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy va Ipakchi-1 x Ipakchi-2 duragay pillalaridan foydalanib, chuvish dastgohida ilgich tagidagi pillalar sonini va ularning chiziqli zichliklarini nazorat qilish asosida yuqori sifatli 4A sinfiga mos xom ipak olish hamda tabiiy ipakdan eshilgan iplarini ishlab chiqarishni ilmiy asoslangan texnologiyasini yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlarning amaliy ahamiyati tabiiy ipakdan tibbiyot bog'lovchi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xomashyo tayyorlash usullari va texnologiyalarini takomillashtirish, ularni joriy etish natijasida yuqori sifatli xom ipak olib, ularni bir nechtasini qo'shib buram berish orqali raqobatbardosh tayyor ipak assortimentlari ishlab chiqarish va ipak mahsulotlarini kengaytirishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tabiiy ipakdan tibbiyot bog'lovchi mahsulotlari uchun xomashyo tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

eni har xil bo'lgan, assortimenti kengaytirilgan, yangi yirik yacheykali strukturaga ega bo'lgan va chekkalari bo'ylab shokila hosil qilmaydigan tibbiyot bintini ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Intellektual mulk Agentligining ixtiro uchun patenti olingan ("Tibbiyot binti", №IAP05838- 2019 y). Natijada, xom ipakdan, yigirilgan ipakdan tibbiyot bintini olish texnologiyasini yaratish imkoni ochilgan;

tabiiy ipakdan tibbiyot bog'lovchi mahsulotlari uchun xomashyo tayyorlash texnologiyasi O'zbekiston Respublikasi "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tasarrufidagi korxonalarda, xususan, "XORAZM PILLA XOLDING" MCHJda, "JINJUZ SILK CO" MCHJda, "KHIVA SILK FABRIC" MCHJ korxonalarida joriy etilgan ("O'zbekipaksanoat" uyushmasining 2026 yil 6 maydagi 1-2/875-son ma'lumotnomasi). Natijada, xalqaro standart talablarining "4A" sinfiga mos xom ipak olish, 3A sinfiga nisbatan sotish narxini va sifatini ortishi, takomillashtirilgan texnologiyani ishlab chiqarishga qo'llash orqali ish unumdorligini 12÷15%ga oshirish imkoni yaratilgan.

tabiiy ipakdan tibbiyot bog'lovchi mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tarkibidagi korxonalarda, xususan, "ASKLEPIY-SVIFT" MCHJ va "FAZO-LUXE" MCHJ korxonalarida («O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining 2026 yil 8 iyundagi 01/06-776 sonli ma'lumotnomasi) joriy etilgan. Natijada, eshilgan hamda yigirilgan ipak ipidan tibbiyot bintini olishda, yangi texnologiyada jarayon va o'timlarni qisqarishi mehnat sarfini kamayishi orqali ishlab chiqarilgan iplar assortimentini qo'llashda ish unumdorligini 10÷14%ga oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy anjumanlarda aprotatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 46 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyasi asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 27 ta maqola nashr etilgan, shundan 6 ta maqola Scopus bazasida chop etilib, O'zbekiston Respublikasining 3 ta ixtiroga patenti olingan va foydali modelga talabnoma topshirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 214 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi, zaruriyati asoslangan, ilmiy muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot materiallari va uslubiyotlari yoritilgan, shu bilan birga tadqiqot ob'ekti, uning predmeti shakllantirilgan, respublikamiz fan va texnologiyalarini rivojlanishining tegishli ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, ishning maqsad va vazifalari, ilmiy va amaliy yangiligi, erishilgan natijalarning ilm-fan va amaliyot uchun ahamiyati ta'kidlab o'tilgan. Natijalarni ishlab chiqarishga joriy qilinishi, olingan ilmiy ma'lumotlarni nashr etilishi va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Tabiiy ipakdan tibbiyotda qo'llaniladigan bog'lovchi mahsulotlarni ishlab chiqarish holatlari"** deb nomlangan birinchi bobida adabiyot manbaalarining tahlili yoritilgan bo'lib, unda respublikamizda pilla yetishtirishni hozirgi holati va xom ipak ishlab chiqarish istiqbollari, xom ipak sifatga ta'sir etuvchi omillar, yuqori sifatli xom ipak ishlab chiqarishda pilla xomashyolaridan samarali foydalanish, sanoatda ishlatiladigan eshilgan ipak iplari va yigirilgan ipak iplarini ishlab chiqarish, ularning turlari hamda xususiyatlari, tibbiyotda qo'llaniladigan turli xil bog'lovchi materiallar turlari va ishlab chiqarish usullari hamda holati bo'yicha qilingan ishlar ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlili kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Olib borilgan adabiyotlar tahlili natijalari asosida birinchi va ikkinchi mavsumda yetishtirilgan pillalarining texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, yuqori sifatli "4A" va "3A" sinfiga mos xom ipak olish usullarini ishlab chiqish, eshilgan ip olish texnologiyasini takomillashtirish, xom ipak, eshilgan va yigirilgan ipak iplaridan

tibbiyot mahsulotlarini ishlab chiqarish lozimligi aniqlandi va uni ilmiy asoslash masalalari dissertatsiya ishining vazifasi etib belgilangan.

Dissertatsiyaning “**Takroriy yetishtirilgan pilla qobiqlarining texnologik xususiyatlari va ko‘rsatkichlarini xom ipak sifatiga ta’siri**” deb nomlangan ikkinchi bobida mavsumda va takroriy yetishtirilgan pillalar qobig‘ining xususiyatlari va pilla iplarining uzunligi tahlil qilingan, jumladan qobiqning texnologik xususiyatlari, yakka chuvish natijalari, navsiz pillalarni ulushi va ularni xom ipak sifatiga hamda chiqishiga ta’siri tadqiq etilgan.

Tadqiqotlarda 2021-2023 yillarda Farg‘ona viloyatida mahalliy sharoitda takroriy yetishtirilgan Ipakchi-1xIpakchi-2 va Xitoy duragaylari pillalari olindi va sifatli saralash ishlari olib borildi. Sifatli saralashdan maqsad tibbiyot mahsulotlarini (ipakli tibbiyot binti, salfetka, turund, lekaplaster va x.k) ishlab chiqarish uchun xomashyo tayyorlash texnologiyasini takomillashtirishdir. Quruq pillalarni saralashda 2004 yilda ishlab chiqarilgan GOST 31256-2004 standarti talablari bo‘yicha I-nav, II-nav, navsiz va nostandart navlarga ajratib saralandi va natijalar 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy va Ipakchi-1xIpakchi-2 duragayi pillalarini saralash ko‘rsatkichlari


Pilla navi	Ipakchi-1xIpakchi-2		Xitoy	
	Pilla vazni (gr)	Pilla miqdori, %	Pilla vazni (gr)	Pilla miqdori, %
	1- mavsum			
I nav	41060	82,2	42040	84,1
II nav	5600	11,2	5300	10,6
Navsiz	3068	6,1	2540	5,0
Nostandart	272	0,5	120	0,3
Jami:	50 000	100	50 000	100
	2- mavsum			
	Pilla vazni (gr)	Pilla miqdori, %	Pilla vazni (gr)	Pilla miqdori, %
	3-mavsum			
I nav	34500	69,0	35850	71,7
II nav	8875	17,8	8625	17,3
Navsiz	6100	12,2	5195	10,3
Nostandart	525	1,05	330	0,7
Jami:	50 000	100	50 000	100
	4- mavsum			
	Pilla vazni (gr)	Pilla miqdori, %	Pilla vazni (gr)	Pilla miqdori, %
	5-mavsum			
I nav	19080	38,2	20170	40,4
II nav	17250	34,5	17665	35,3
Navsiz	11486	22,9	10525	21,0
Nostandart	2184	4,4	1640	3,3
Jami:	50 000	100	50 000	100
	6- mavsum			
	Pilla vazni (gr)	Pilla miqdori, %	Pilla vazni (gr)	Pilla miqdori, %
	7- mavsum			
I nav	13775	27,6	14000	28,0
II nav	25525	31,0	15700	31,4
Navsiz	17454	34,9	17110	34,2
Nostandart	3246	6,5	3190	6,4
Jami:	50 000	100	50 000	100

Bu yerda shuni ta’kidlab ketish kerak, hozirgi paytda takroriy pilla yetishtirilyapti, lekin ishlatayotgan standartimizda bu takroriy yetishtirilgan pillalar nazarda

tutilmagan. Shu sababli quruq pillalar uchun mo'ljallangan texnik shartga o'zgartirishlar kiritish uchun ham saralash ishlari olib borildi.

1-jadval tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, mavsumlarda yetishtirilgan pillalarini saralanganda Ipakchi-1xIpakchi-2 duragayi pillalarda 1-mavsumda navli pillalar 82%, navsiz pillalar esa 6%, 4-mavsumda esa navli pillalar 27%, navsiz pillalar esa 41% va Xitoy duragayi pillalarida 1-mavsumda navli pillalar 84%, navsiz pillalar esa 5%, 4-mavsumda esa navli pillalar 28%, navsiz pillalar esa 40%ni tashkil etdi.


Uch yil davomida mahalliy sharoitda yetishtirilgan Ipakchi-1xIpakchi-2 duragayi va Xitoy ipak qurti urug'idan 1-2-3-4-mavsum boqilgan pilla namunalarini qobig'ining texnologik xususiyatlaridan eng muhimi pilla ipining umumiy va uzluksiz uzunliklari tadqiq etilib, o'rganildi (1-rasm).



1-rasm. Takroriy yetishtirilgan navli pilla iplarini umumiy uzunligi

1-rasmdan shuni ko'rish mumkinki, takroriy mavsumda yetishtirilgan pillalarni yakka holda chuvib ko'rilganda, umumiy uzunligi birinchi mavsumda-1198 metrni, ikkinchi mavsumda-853 metrni, uchinchi mavsumda-793 metrni, to'rtinchi mavsumda -495 metrni tashkil etdi.

Xom ipakni belgilangan nominal chiziqliy ($T_{b,n}$) zichligini avtomatik boshqarishda yuqori (T_{max}) va quyi (T_{min}) cheklovlar inobatga olingan holda ip sifatiga standart talablarida mumkin bo'lgan og'ishlar qiymati belgilab qo'yilgan (2-rasm).



2-rasm. Xom ipakni chiziqli zichligini avtomatik boshqarishni ko'rinishi.

$\Delta T' = T_{max} - T_{min}$ - chiziqliy zichlikni boshqarib chegaralangan nominal qiymati;

$\Delta T'$ - chiziqliy zichlikni pastki T_{min} og'ishdan o'tib ketish qiymati;

$T_{k.d}$ - kompensatsiya davridagi chiziqliy zichlik.

Shu davr ichida, pilla iplarini funksional, tabiatdan notekisligi sababli, xom ipakni chiziqliy zichligini qo'shimcha $\Delta T'$ miqdorda kamayish hollarini uchratish mumkin. Faraz qilaylik, eng yomon holatda pilla iplarini n soni bir vaqtda chuvila boshlanadi. Ip uzunligi l noldan katta, lekin uzluksiz uzunlik $l_{u.u}$ dan kichik yoki teng bo'lgan holatda ($0 \leq l \leq l_{u.u}$) chiziqliy zichlikni parabola bo'lishi kuzatiladi,

$$T_i = (a + bl_i + cl_i^2)n \quad (1)$$

bu yerda, l_i -boshidan ipning chuvilgan uzunligi; n -pilla iplari soni; a , b , c koeffitsiyentlar. (har bir zotga alohida hisoblanadi)

Ma'lum t_a vaqt o'tishi bilan pilla iplarining tabiatdan ingichkalanishi A nuqtaga kelib, pastki T_{min} -yo'l qo'yilgan kichik og'ishgacha pasayadi.

$$T_{min} = T_a = (a + bl_a + cl_a^2)n \quad (2)$$

bu yerda, $l_a = V \cdot t_a$ V -chuvish tezligi,

Ma'lum parabola koeffitsiyentlarini, lozim bo'lgan xom ipakni eng past (T_{min}) chiziqliy zichligini inobatga olib (2) tenglikni l_a nisbatan yechib ip uzunligi aniqlanadi, undan so'ng (2-rasmga qarang) egri chiziq T_{min} ni kesib o'tadi va quyidagi tenglik bilan ifodalanadi

$$l_a = \sqrt{\frac{T_{min}}{c \cdot n} - \frac{a}{c} + \left(\frac{b}{2c}\right)^2} - \frac{b}{2c} \quad (3)$$

Ipning boshidan chugalish vaqti esa $t_a = \frac{l_a}{V}$ ga teng bo'ladi.

Pilla iplarini chuvish, xom ipakni ishlab chiqarish pilla kompensatsiya $t_{p.k}$ vaqt birligida davom etib qo'shimcha, T_{min} dan ham pastlab, ingichkalashib boradi, u holda $\Delta T'_{max}$, chiziqliy zichlikni maksimum og'ishi quyidagicha bo'ladi.

$$\Delta T'_{max} = T_{min} - [a + b \cdot V(t_a + t_{p.k}) + cV^2(t_a + t_{p.k})^2] \cdot n \quad (4)$$

Agar 3,23 teks xom ipakni 9 ta pilla ipidan ishlab chiqarildi deb faraz qilsak parabola koeffitsiyentlari $a = 3,2$; $b = 3,6^{-5}$ va $c = 6,2^{-6}$ ipni boshidan chuvishda $l_a = 109,5$ uzunlikda notekislikni eng pastki chegarasini kesib o'tib, berilgan nominal tiklangan chiziqliy zichlik 115,6 m ga to'g'ri keldi. Pillani kompensatsiya vaqti ($t_{p.k}$) dastgohlarni texnologik ko'rsatkichlariga, jumladan chiziqliy zichlikni nazorat qiluvchi va rostlovchi apparatining a'lo ishlashiga, hamda pilla iplarini uzluksiz uzunligiga bog'liqdir. Agar har bir ishlab chiqarilayotgan xom ipakni berilgan nominal chiziqliy zichligi $T_{b.n}$ belgilab, uning maksimal va minimal og'ish qism o'lchovini sinov kalavachani olib hisoblash mumkin. U holda nazorat aparatidagi minimum boshqaruvni talabidagi yo'g'onlik (l_b) tiklanishdagi og'ishini

$$\Delta m = T_{b.n} \cdot l_b - \int_0^{l_b} T(1) \cdot dl \quad (5)$$

bu yerda, $l_b = (t_a + t_n) \cdot v$ km da belgilanadi. (1) dagi $T(1)$ ni (5) qo'yib

$$\Delta m = T_{b.n} \cdot l_b - n \int_0^{l_b} (a \cdot l + bl^2 + cl^2) dl \quad (6)$$

Xom ipakni chiziqliy zichligi $l_a < l_i < l_{u.u}$ masofada quyidagi funksiya shaklida davom etadi.

$$T_i = n(a + bl_i + cl_i^2) + [a + b(l_i - l_a) + c(l_i - l_a)^2] \quad (7)$$

bu degani ma'lum davr ichida pilla dastasida $n+1$ pilla bir vaqtda chuvila boshlaydi. Agar (7) ga tahlil qilib uzluksiz uzunligi yuqori bo'lgan pillalar chuvilayotgan davrda, uzuqlarni bo'lmasligi holatida, xom ipakni chiziqliy zichligini quyidagicha ifodalash mumkin.

$$T_i = \sum_{j=1}^{n+1} a + b(l_i - l_a P_j) + c(l_i - l_a \cdot P_j)^2 \quad (8)$$

bu yerda P_j –har bir tashlangan pillalar hisobiga xom ipakni chiziqliy zichligini berilgan qiymatiga tiklanishlar soni.

Bizga ma'lumki, texnologik jarayonda pilla ipi yo'g'on yoki eski ingichka bo'lgan hollarda nazorat apparatini yaxshi ishlashiga bog'liq holda chiziqliy zichligi berilgan darajada ya'ni standart "3A"; "4A" xatto "5A" talablariga mos ipakdagi og'ishlarni bashoratlab nazorat qilish imkoni paydo bo'ladi va maksimal yoki minimal og'ishdan kam bo'lishligi ta'minlanadi.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, ipak bintini ishlab chiqarish uchun xom ipakka qo'yilgan standart talabini "4A" va "3A" sinfiga mos keladigan xom ipakni xomashyo sifatida foydalanish zarur. Bu o'z navbatida pilla ipini yuqori darajadagi uzluksiz uzunligi ($l_{u.u}$) bo'lishini talab qiladi, uni quyidagi formula asosida hisoblash mumkin.

$$l_{u.u} \geq \frac{d \cdot n \cdot v \cdot t_k \cdot T_{p.i}}{0,1 [\Delta m]} \quad (9)$$

bu yerda, d - xom ipakni diametri, mm ; n - ilgichdagi pillalar soni, $dona$; v - xom ipakni chuvish tezligi, m/min ; t_k - uzilgan pillalarni kompensatsiya vaqti, s ; $T_{p.i}$ -pilla ipini chiziqliy zichligi, tex ; Δm - xom ipakni standart talabidagi chiziqliy zichligini og'ishi.

2,33 va 3,23 tex li xom ipakni standart talabining "4A" va "3A" sinf talablariga javob beruvchi uzluksiz uzunligini hisoblangan qiymatlari 2-jadvalda berilgan. Olib borilgan nazariy va amaliy tajribalar tadqiqotlar natijasida, zamonaviy xom ipak ishlab chiqarish avtomatlarida kompensatsiya vaqti t_k -6s. deb qabul qilamiz. Pilla ipini chiziqliy zichligini o'rtacha 0,31 tex, 2,33 tex uchun $n=8$; 3,23 tex uchun $n=9$ deb qabul qilamiz. Xom ipak ishlab chiqarishdagi Xalqaro standart ISO standart talablarini "4A" va "3A" sinfiga mos ip bo'lishidagi pilla ipining uzluksiz uzunligini hisoblangan qiymatlari 2-jadvalda berildi.

2-jadval

Pilla iplarini uzluksiz uzunligini hisobiy natijalari

Xom ipak va sinfi	Δm , max og'ishi			t_k	$l_{u.u}$ turli tezliklarda (m/min)		
	Xalqaro standart ISO	nazariy	amaliy		100	120	130
2,33 tex 4A	0,34	0,34	0,18	6	750	810	850
3A	0,40	0,39	0,19	7	730	800	840
3,23 tex 4A	0,42	0,42	0,21	6	720	800	835
3A	0,50	0,45	0,22	7	700	800	819

2-jadvaldan ko'rinib turibdi, 0,35-bu chiziqliy zichlik ya'ni teksdan og'ishi hisoblangan. Ipak chuvish avtomatlarida uzilgan pillalarni kompensatsiya vaqti 6 s bo'lganda standartni "3A" va "4A" sinfiga mos xom ipak olish mumkin. Olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlarimiz natijasida takroriy yetishtirilgan pillalar ipini o'rtacha umumiy uzunligi 1198 metrdan, uzluksiz uzunligi esa 850 metrdan yuqori

bo'lgan nuqsonsiz pillalardan xalqaro standartni "3A" va "4A" talablariga javob beruvchi xom ipak ishlab chiqarish mumkinligi isbotlandi.

Saralangan Ipakchi-1xIpakchi-2 va Xitoy duragayi pillalaridan 3,23 va 2,33 tex li xom ipaklar chuvis olindi. Xitoy duragayi pillalaridan olingan 3,23 tex chiziqli zichlikdagi xom ipakning sifat ko'rsatkichlari 3-jadvallarda keltirilgan.

3-jadval

Xitoy duragayi pillalaridan olingan 3,23 tex chiziqli zichlikdagi xom ipakning asosiy sifat ko'rsatkichlari

Xom ipakni ikkinchi darajali sifat ko'rsatkichlari	Xalqaro standart ISO	Haqiqiy natijalar	Natija	Haqiqiy natijalar	Natija	Haqiqiy natijalar	Natija	Haqiqiy natijalar	Natija
		Xitoy (1-mavsum)	Xitoy (2-mavsum)	Xitoy (3-mavsum)	Xitoy (4-mavsum)	Xitoy (3-mavsum)	Xitoy (4-mavsum)	Xitoy (3-mavsum)	Xitoy (4-mavsum)
Chiziqli zichligi bo'yicha og'ishi, (denier) ko'pi bilan	1,4	0,5	4A	1,58	3A	2,18	A	2,62	B
1-notekislik, ko'pi bilan	150	100	4A	155	3A	175	2A	220	B
2-notekislik, ko'pi bilan	10	0	4A	0	4A	20	2A	50	B
Yirik nuqsonlardan tozaligi, kamida %	97	99	4A	98	4A	96	3A	90	A
Mayda nuqsonlardan tozaligi, kamida %	94	100	4A	95	4A	95	4A	90	2A
Eng yomon tozalik, kamida %	90	100	4A	90	4A	95	4A	85	2A

3-jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, 3,23 tex chiziqli zichlikdagi xom ipakni Xalqaro standart talabi bilan solishtirganda 1-mavsumda yetishtirilgan Xitoy duragayi pillalaridan 4A-sinfiga, 2-mavsumda 3A-sinfiga, 3-mavsumda A-sinfiga va 4-mavsumda B-sinfiga mansub ekanligi aniqlandi. Tanlangan texnologik rejimlar asosida "XORAZM PILLA XOLDING" MCHJda, "JINJUZ SILK CO" MCHJda, "KHIVA SILK FABRIC" MCHJ ipakchilik korxonalarida sanoat namunalari olinib, ishlab chiqarishga joriy etildi.


Ipak tabiatan yuqori gigiyenik (antiseptik) xususiyatga ega ekanligini, ayniqsa fibroin tabiatan antiseptik xususiyatga ega bo'lganligini inobatga olib, 3,23 va 2,33 tex li xom ipaklardan "FAZO-LUXE" MCHJ korxonasida ishlab chiqarish sharoitida 2017 yilda tasdiqlangan O'zDSt 3186-"Qaynatilgan ipakli tibbiyot dokasi" texnik sharti asosida yangi tarkibli ipak to'qimasi, ya'ni ipak dokasini 5 xil namunasi olindi va uni xususiyatlarini tadqiq qilindi. Yuqoridagi ketma-ketlikdagi texnologik jarayonlar bajarilib, ip soniga bog'liq holda 10 sm dagi asos va tanda bo'yicha tibbiyot dokasining yuza zichligi 19,8 dan 24 g/m² gacha bo'lgan yangi namuna olindi. Ipak doka namunalari sifat ko'rsatkichlari TTYSI qoshidagi sertifikatlash laboratoriyasida o'rnatilgan zamonaviy uskunalarda tadqiq etildi, uning natijalari 4-jadvalda va davlat standarti talablariga javob beruvchilar gistogrammada keltirildi.

4-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2,33 va 3,23 tex chiziqli zichlikdagi xom ipakdan foydalanilganda 10 sm ga tanda bo'yicha 460-530 ta va arqoq bo'yicha 440-510 ta ip to'g'ri keladi. Olingan to'qimadan nafas olishni himoya qiluvchi niqob tayyorlandi. Ipakli niqobni ishlab chiqarilishiga O'zbekiston respublikasi adliya vazirligiga foydali modeli uchun talabnoma topshirildi.

To'qima usulidagi yangi assortiment tibbiyot dokasining fizik-mexanik va kimyoviy xususiyatlari

Ko'rsatkichlar	O'zDst 3186-2017	NAMUNALAR VARIANTI (xom				
		1	2	3	4	5
Dastlabki ip chiziqli zichligi, tex tanda bo'yicha arqoq bo'yicha	2,33; 3,23	2,33	2,33	3,23	3,23	3,23
	2,33; 3,23	2,33	2,33	3,23	3,23	3,23
10 sm ga to'g'ri keladigan iplar soni, tanda bo'yicha arqoq bo'yicha	320-500	470	500	500	480	460
	180-500	460	460	480	460	440
Yuza zichligi	16,5-36,5	20,9	19,8	23,6	22,5	21,5
50x200 mm dagi doka bo'lagining uzilish kuchi, kamida, kgk; tanda bo'yicha arqoq bo'yicha	11,3	13,9	15,5	15,4	15,1	14,7
	10,5	13,4	14,6	15,2	14,9	14,1
Kapillyarlik, kamida, sm/soat	10	10,2	12,5	10,0	10,5	11,2
Ho'llanish tezligi, ko'p emas, s	10	5	1,5	3,5	3,2	2,5
Oqligi, kamida, %	80,0	82,5	83,0	85,0	85,0	85,0
Oltinugurt tuzlari massa ulushi, ko'p emas, %	0,02	0,02	0,02	0,02	0,02	0,02
Havo o'tkazuvchanligi, sm ³ /m ² sek.	379,5	379,5	273,0	275,2	280,1	271,5
PH suv tortishi	neytral	neytral	neytral	neytral	neytral	neytral
Antiseptik xususiyati	tabiatan	tabiatan	tabiatan	tabiatan	tabiatan	tabiatan

Dissertatsiyaning **“Ipakdan yangi assortiment bog'lov mahsulotlari uchun xomashyo tayyorlash”** deb nomlangan uchinchi bobi xom ipakdan yangi assortimentdagi bog'lov materiali ishlab chiqarish uchun xomashyo tayyorlash texnologiyasini takomillashtirishga bag'ishlangan. Ipakchi-1xIpakchi-2 va Xitoy duragaylaridan olingan 2,33, 3,23 tex chiziqli zichlikdagi xom ipaklarni eshishga tayyorlashda quyidagi takomillashtirilgan texnologik jarayonlar ketma-ketligida bajariladi.



3-rasm. Tibbiyot bintini ishlab chiqarish uchun xom ipakdan eshilgan iplarni tayyorlashda takomillashtirilgan texnologik jarayonlar ketma-ketligi.


Eshilgan iplarni fizik-mexanik xususiyatlari o'rganildi va eshilgan ipak iplari ko'rsatkichlari quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Eshilgan iplar fizik-mexanik xususiyatlari

Ko'rsatkichlar	Eshilgan ipak ipi			
Nominal chiziqli zichlik, tex	2,33 x 3 S (6,99)	2,33 x 8 S (18,64)	3,23 x 3 S (9,69)	3,23 x 8 S (25,84)
Chiziqli zichlik bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	3,0	5,0	3,1	5,1
Uzilish kuchi, cN	276	715	376	1014
Solishtirma uzilish kuchi, cN/tex	38,8	36,8	37,2	38,8
Uzilishdagi cho'zilishi, %	18,4	19,3	19,1	19,5
Buramlar soni, br/m	500 (S)	450 (S)	500 (S)	450 (S)
Buramlar bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	2,5	3,5	2,5	3,5

5-jadval natijalaridan shuni ko'rish mumkinki, 2,33x3S (6,99 tex) eshilgan ipak ipining uzilish kuchi 276 cN, solishtirma uzilish kuchi 38,8 cN/tex, uzilishdagi cho'zilishi 18,4 %, buramlar bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 2,5 %, 2,33x8S (18,64 tex) eshilgan ipak ipining uzilish kuchi 715 cN, solishtirma uzilish kuchi 36,8 cN/tex, uzilishdagi cho'zilishi 19,3 % ni tashkil etdi. 3,23x3S (9,69 tex) eshilgan ipak ipining uzilish kuchi 376 cN, solishtirma uzilish kuchi 37,2 cN/tex, uzilishdagi cho'zilishi 19,1%, 3,23x8S (25,84 tex) eshilgan ipak ipining uzilish kuchi 1014 cN, solishtirma uzilish kuchi 38,8 cN/tex, uzilishdagi cho'zilishi 19,5 %, buramlar bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 3,5 % ni tashkil etdi. Bu tayyorlangan eshilgan ipak iplaridan tibbiyot binti ishlab chiqarish mumkinligi aniqlandi.



4-rasm. Eshilgan iplarning uzilish kuchini, qattiqligini qo'shilgan iplar va buramlar soniga bog'liqligi (3, 23x8S)

Ushbu ipakli bintlarni ishlab chiqarishda olib borilgan tadqiqotlar tahlili natijasida texnologik jarayonda turli xil eshilgan iplarni ishlatilishida buramlarni o'zgarishi, iplar sonini ta'siri hamda ipakli tibbiyot binti enini xar xil o'lchamda tayyorlashda olib borilgan tajribalar natijasida berilgan buramlarni va iplar sonini hamda bint enini ratsional qiymatlarini aniqlab, xom ipakning qo'shilish soni, buramlar sonini mustahkamlikka va qoldiq seritsin miqdoriga bog'liqligi, bint enini maqbul variantini tanlash, dastgoh ish unumdorligini oshirishga ta'sirini aniqlash imkonini beradigan parametrlar tanlandi.

Tadqiqot o'tkazishda quyidagi asosiy parametrlar hisobga olindi, kiruvchi omillar quyidagicha tanlab olindi:

Kirish parametrlari.

1. x_1 - Buramlar soni (br/m).
2. x_2 - Seritsin miqdori, (%).
3. x_3 - Iplar soni (dona).

Chiquvchi omil etib matoning uzish kuchi qabul qilindi.

6-jadval

Omillarning o'zgarish sathlari

Omillar		O'lchov birligi	O'zgarish sathlari			O'zgarish intervali
Nomi	Kodlari		-1	0	+1	
Buramlar soni,	x_1	br/m	400	450	500	50
Seritsin miqdori	x_2	%	5	6	7	1
Iplar soni,	x_3	dona	4	6	8	2

Tajribalar uch takrorlikda o'tkazilishidan avval tasodifiy sonlar jadvalidan foydalanib, randomizasiya qilindi va ular bo'yicha o'tkazildi.

Uzish kuchi bo'yicha olingan regressiya tenglamasi


$$y_1 = 392,4 + 4,6x_1 + 19,8x_2 - 3,1x_3 + 3,9x_1x_2 - 12,1x_1x_3 - 1,8x_2^2 - 1,3x_3^2 \quad (10)$$

Yuqoridagi regression tenglamalar orqali tahlil qilish oson va tushunarli bo'lishi uchun "Mathcad" dasturidan foydalanib ularning izochiziqlari qurildi.


7-jadval

Tajriba rejasi


T/r	Omillar sathlari			$\bar{Y}_{u1}$	$\bar{Y}_{u2}$	$\bar{Y}_{u3}$	Uzilish kuchi $\bar{Y}_{u.o'rta}$	$S^2\{y_{u1}\}$, dispersiya
U	X_1	X_2	X_3					
1	+	+	-	420	418	417	418	2,889
2	0	+	+	416	415	418	416	1,889
3	-	+	0	409	407	408	408	2,000
4	+	0	0	400	402	398	400	4,000
5	0	0	-	387	389	390	389	2,889
6	-	0	+	375	377	379	377	4,000
7	+	-	+	369	371	372	371	2,889
8	0	-	0	376	378	377	377	2,000
9	-	-	-	374	376	378	376	4,000
								$\Sigma=26,556$



a



b



5-rasm. Uzish kuchi bo'yicha olingan regressiya tenglamasi izochizqlari

a-rasmda x_1 – buramlar soni va x_2 – seritsin miqdori kodlangan qiymatlarda $-1 \div 0 \div 1$ oraliqda o'zgarganda x_3 – iplar soni const. bo'lganda uzish kuchi $x_1 - (0,2 \div 1)$ va $x_2 - (0,6 \div 1)$ oraliqda eng yuqori qiymatga erishadi. Natural qiymatlarda $x_1 - 470 \div 500 \text{ bur/m}$ $x_2 - 7 \%$ va $x_3 - 8$ ga to'g'ri keladi.

b-rasmda x_1 – buramlar soni va x_3 – iplar soni kodlangan qiymatlarda $-1 \div 0 \div 1$ oraliqda o'zgarganda x_2 – seritsin miqdori const bo'lganda uzish kuchi $x_1 - (0,2 \div 1)$ va $x_3 - (0 \div 1)$ oraliqda eng yuqori qiymatga erishadi. Natural qiymatlarda $x_1 - 450 \div 500 \text{ bur/m}$ $x_3 - 6-8$ dona va $x_2 - 7 \%$ ga to'g'ri keladi.

c-rasmda x_2 – seritsin miqdori va x_3 – iplar soni kodlangan qiymatlarda $-1 \div 0 \div 1$ oraliqda o'zgarganda x_1 – buramlar soni const bo'lganda uzish kuchi $x_2 - (0,6 \div 1)$ va $x_3 - (0,2 \div 1)$ oraliqda eng yuqori qiymatga erishadi. Natural qiymatlarda $x_2 - 6 \div 7 \%$ $x_3 - 6-8$ dona va $x_1 - 500 \%$ ga to'g'ri keladi.

Ratsional parametrlar x_1 - buramlar soni 500 bur/m, x_2 - seritsin miqdori 7%, x_3 – iplar soni 8 dona bo'lganda uzish kuchi 420 cN ga teng bo'ldi.

Tadqiqotlar davomida ipakli bintlarni trikotaj usulida ishlab chiqarish uchun tayyorlangan eshilgan ipak iplarini qaynatish kerak. Tabiiy ipak tarkibida 25-30% gacha seritsin moddasini borligi uchun tayyorlangan eshilgan ipak iplari dag'alroq bo'ladi. Shu sababli eshilgan ipak iplarini qaynatish zarur bo'ldi. Eshilgan ipak iplaridan seritsinni qaynatib chiqarishda ipak sifatiga ta'sir ko'rsatmaydigan tabiiy moddalar aralashmalarida alohida retsept asosida emulsiya tayyorlanib qaynatildi.

Qaynatilgan eshilgan ipak ipini sifat ko'rsatkichlari Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi sertifikatlash laboratoriyasida o'rnatilgan zamonaviy uskunalarda tadqiq etildi, uning natijalari 8-jadvalda keltirildi.

8-jadval

Qaynatilgan eshilgan ipak iplari ko'rsatkichlari

No	Nomi	Qaynatilgan eshilgan ipak ipi			
1	Nominal chiziqli zichligi, tex	2,33 x 3 S (6,99)	2,33 x 8 S (18,64)	3,23 x 3 S (9,69)	3,23 x 8 S (25,84)
2	Uzilish kuchi, cN	204	549	279	760
3	Solishtirma uzilish kuchi, cN/tex	38,2	37,7	36,8	37,1
4	Uzilishdagi cho'zilishi, %	17,7	18,2	18,0	18,6
5	Buramlar soni, br/m	500 (S)	450 (S)	500 (S)	450 (S)

8-jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, chiziqli zichligi 2,33x3S (6,99 tex) li qaynatilgan eshilgan ipak iplarida uzilish kuchi 204 cN, uzilishgacha cho'zilishi 17,7% ni, 2,33x8S (18,64 tex) li qaynatilgan eshilgan ipak iplarida uzilish kuchi 549cN, uzilishgacha cho'zilishi 18,2% ni, 3,23x3S (9,69 tex) li qaynatilgan eshilgan ipak iplarida uzilish kuchi 279 cN, uzilishgacha cho'zilishi 18,0% ni, 3,23x8S (25,84 tex) li qaynatilgan eshilgan ipak iplarida uzilish kuchi 760 cN, uzilishgacha cho'zilishi 18,6% ni tashkil etdi. Demak, qaynatib tayyorlangan eshilgan ipak iplaridan trikotaj usulida turli xil enli (3-14 sm gacha) ipakli bintlarni ishlab chiqarish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Yangi assortimentdagi ipakli tibbiyot mahsulotlarini ishlab chiqarish”** deb nomlangan to'rtinchi bobi eshilgan ipak ipidan tibbiyot bintini ishlab chiqarish texnologiyasiga bag'ishlangan.

Ipakdan tibbiyot bintini to'qish jarayonida to'quv dastgohida tanda iplarida hosil bo'ladigan tarangligi va deformatsiyasi orasidagi bog'lanishlarni topish uchun tajribada olingan qiymatlar Fisher-Snedekor mezoni bilan solishtirilgan. Tajriba uchun qaynatilgan va qaynatilmagan eshilgan ipak iplarini to'qish jarayonida aniqlangan qiymatlari hisoblarda foydalanilgan.

Regressiya tenglamasini tuzish uchun quyidagi ma'lumotlarni olish talab etiladi.

a) Empirik regressiya tenglamasi tuzilsin; b) Regressiya tenglamasining muhimlik darajasi $\alpha = 0,05$ bo'lganda baholang; v) o'zgaruvchilar orasida bog'lanish tig'izligini empirik korrelyatsion nisbatni determinatsiya korrelyatsiyasi R orqali baholang. Korrelyatsion bog'lanish uchun quyidagi chiziqsiz tenglamani qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

$$y_x = b_0x + b_1x^2 + b_2x^3 \quad (11)$$

tenglamadagi b_0 , b_1 va b_2 koeffitsiyentlar kvadrat og'ishning eng kichik qiymatga ega bo'lish usulidan aniqlanadi. Shunga ko'ra quyidagi funksional $S = \sum_{i=1}^n (y_i - y_x)^2 = \sum_{i=1}^n (y_i - b_0 - b_1x_i - b_2x_i^2)^2$ ni minimumga erishish shartlari $\frac{\partial S}{\partial b_0} = 0$, $\frac{\partial S}{\partial b_1} = 0$, $\frac{\partial S}{\partial b_2} = 0$ dan foydalanib b_0 , b_1 va b_2 koeffitsiyentlarni topish uchun tenglamalar sistemasini olamiz.

$$\begin{aligned} b_0S_0 + b_1S_1 + b_2S_2 &= Z_1 \\ b_0S_1 + b_1S_2 + b_2S_3 &= Z_2 \\ b_0S_2 + b_1S_3 + b_2S_4 &= Z_3 \end{aligned} \quad (12)$$

Bu yerda:

$$S_0 = \sum_{i=1}^n x_i^2, \quad S_1 = \sum_{i=1}^n x_i^3, \quad S_2 = \sum_{i=1}^n x_i^4, \quad S_3 = \sum_{i=1}^n x_i^5, \quad S_4 = \sum_{i=1}^n x_i^6 \quad Z_1 = \sum_{i=1}^n x_i y_i, \quad Z_2 = \sum_{i=1}^n x_i^2 y_i, \quad Z_3 = \sum_{i=1}^n x_i^3 y_i$$

Olingan bog'lanishning ishlardagi tavsiyalar asosida muhimligini baholaymiz.

Ushbu statistikani $F = \frac{s_R^2}{s_e^2} = \frac{Q_R(n-m)}{Q_e(m-1)}$ qiymatini aniqlab, uni Fisher-Snedekor mezoni $F_{\alpha; k_1; k_2}$ bilan solishtiramiz.

bu yerda n - kuzatishlar soni, m - regressiya tenglamasida baholanadigan parametrlar soni kvadrat funksiya uchun $m=3$

$$Q = \sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2, \quad Q_e = \sum_{i=1}^{10} (y_{x_i} - y_i)^2, \quad Q_R = Q - Q_e$$


Bu yerda y_i ($i = 1..10$)- ekspertlarning o'rtacha bahosi (ballada), $\bar{y} = \frac{\sum_{i=1}^{10} y_i}{n} = \frac{z_1}{n}$ - ularning o'rta arifmetik qiymati, y_{x_i} - (12) bog'lanishning $x = x_i$ dagi qiymatlari: $y_{x_i} = y_x(x_i)\alpha = 0,05$ $k_1 = m - 1$, $k_2 = n - m$.

Keyingi bosqichda $F = \frac{s_R^2}{s_e^2} = \frac{Q_R(n-m)}{Q_e(m-1)}$ statistikaning qiymatini Fisher-Snedekor mezonining jadvaldagi qiymati n F_{α, k_1, k_2} bilan solishtiriladi.

Agar $F > F_{0,05;2;7}$ tengsizlik bajarilsa, mezonga ko'ra regressiya tenglamasi o'rinli bo'ladi, aks holda yuqoridagi regresion bog'lanish mavjud bo'lmaydi. Ushbu formuladan tig'izlik koeffitsiyenti aniqlanadi. $R_{yx} = R = \sqrt{1 - Q_e/Q}$ va bu kattalik determinatsiya koeffitsiyenti deb aytiladi.

$$y = 150,2x - 15,0x^2 + 528x^3 \text{ aproksimatsiya chizig'i.}$$


Aproksimatsiya chizig'ini adekvatligini baholash uchun mezon yuqorida keltirilgan o'zgarmlar aniqlangan $Q=455000$, $Q_e=4098,2$, $Q_R=450901,7$. Bu holda statistika quyidagi qiymatni qabul qiladi. $F=550,1$, $\alpha = 0,05$ $k_1 = m - 1 = k_2 = n - m$, $m=3$, $n=13$ qabul qilamiz, u holda $k_1 = 2$, $k_2 = 10$ ga teng bo'lib, jadvaldan $F_{\alpha, k_1, k_2} = 4,46$ bo'lib Fisher Snedekkor mezoni bo'yicha $F_{\alpha, k_1, k_2} < F$ shart bajarilib tig'izlik koeffitsiyenti $R=9954862076$ ga teng, aproksimatsiya 95 % kafolat bilan ta'minlanadi.



6-rasm. Qaynatilgan tanda ipi tarangligi bilan deformatsiyasi orasidagi bog'lanishi (1-tajriba, 2- aproksimatsiya)

6-rasmdan berilgan 1-tajriba va 2-aproksimatsiya, qaynatilgan tanda ipi tarangligi bilan deformatsiyasi orasidagi bog'lanishi 595 cN hamda cho'zilishi 14% bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

$y = 003053305379 + 3692326190 \cdot 10^{-5}x + 2092338213 \cdot 10^{-7}x^2$ aproksimatsiya chizig'i. Yuqorida keltirilgan o'zgarmlar aniqlangan $Q=547,6$, $Q_e=6,7$, $Q_R=540,8$. Bu holda statistika quyidagi qiymatni qabul qiladi. $F=598,9$, $\alpha = 0,05$ $k_1 = m - 1 = k_2 = n - m$, $m=3$, $n=13$ qabul qilamiz, u holda $k_1 = 2$, $k_2 = 10$ ga teng bo'lib, jadvaldan $F_{\alpha, k_1, k_2} = 4,46$ bo'lib Fisher Snedekkor mezoni bo'yicha $F_{\alpha, k_1, k_2} < F$ shart bajarilib tig'izlik koeffitsiyenti $R=9937972231$ ga teng, aproksimatsiya 95 % kafolat bilan ta'minlanadi.



7-rasm. Qaynatilmagan tanda ipi tarangligi bilan deformatsiyasi orasidagi bog‘lanish grafigi
(1-tajriba, 2- aproksimatsiya)

7-rasmdan berilgan 1-tajriba va 2-aproksimatsiya, qaynatilmagan tanda ipi tarangligi bilan deformatsiyasi orasidagi bog‘lanishi 827 cN hamda cho‘zilishi 18% bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

To‘qish jarayonida beriladigan ip zichlagich zarba ta’sirida tanda ipi tarangligini hisoblash keltirilgan. Tanda ipining taranglik P (cN) bilan deformatsiyasi ε (*ulush*) orasidagi bog‘lanish tajribalar natijasining tahlili asosida chiziqsiz (kubik) qonuniyatiga bo‘ysinadi.

$$P = b_0\varepsilon + b_1\varepsilon^2 + b_2\varepsilon^3 \quad (13)$$

Faraz qilaylik ipning urilish kesimida unga ipning ko‘chishiga proporsional bo‘lgan kuch ta’sir etsin. Koordinat boshini kuzatiladigan uchiga joylashtirib Ox o‘qini ip bo‘ylab yo‘naltiramiz (8-rasm). Tanda ipining umumiy (deformatsiyadan oldin) uzunligini L uchi ixtiyoriy nuqtasidagi va $x=0$ ko‘chishlarini $u(x,t)$ va $u_0(t)$ bilan belgilaymiz.

Tanda ipi tarangligini hisoblash uchun variatsion usuldan foydalanamiz, u_0 , umumlashgan koordinata deb qabul qilamiz va ipning deformatsiyalanish jarayonida uning potensial $U(u_0)$ va kinetik energiya $K(u_0)$ larini hisoblaymiz.



8-rasm. To‘qish jarayonida beriladigan ip zichlagich zarbasi ta’sirida tanda ipining harakatlanish sxemasi

To‘qish jarayonida beriladigan ip zichlagich zarba nuqtasinig vaqt bo‘yicha ko‘chishi ushbu integral ko‘rinishida ifodalanadi

$$t = f(u_0) = \int_0^{u_0} \frac{du_0}{\sqrt{v_0^2 - \frac{3}{\rho FL} [b_0 \frac{u_0^2}{L} + b_1 \frac{u_0^3}{L^2} + b_2 \frac{u_0^4}{L^3} + k u_0^2 + 2P_0 u_0]}} \quad (14)$$

Tanda ipining deformatsiyasi $\varepsilon = \frac{\partial u}{\partial x}$ formula yordamida hisoblanadi. (15) formula yordamida uning vaqt bo'yicha bog'lanishini aniqlash mumkin.

$$t == \varphi(\varepsilon) = \frac{L}{v_0} \int_0^\varepsilon \frac{d\varepsilon}{\sqrt{1 - \frac{3}{v_0 \rho F} [b_0 \varepsilon^2 + b_1 \varepsilon^3 + b_2 \varepsilon^4 + kL\varepsilon^2 + 2P_0\varepsilon]}} \quad (16)$$



Hisoblar ushbu fizik geometrik parametrlarning shu qiymatlarida bajarilgan:

Tanda ipi diametri $D=0,18 \cdot 10^{-3}$ m, **zichligi:** $\rho = 1,37 \frac{\text{mg}}{\text{mm}^3} = 1,37 \cdot 10^3 \text{kg/m}^3$, $k=5 \text{N/m}$, $L=2 \text{m}$, $v_0=25 \text{m/s}$

Tanda ipi deformatsiyasi va to'qish jarayonida beriladigan ip zichlagich zarbasi ta'sirida hosil bo'ladigan qo'shimcha taranglikning boshlang'ich taranglikning ikkita qiymatida vaqt bo'yicha o'zgarishlari 9 va 10- rasmlarda keltirilgan.

$P_0 = 0$



$P_0 = 10 \text{cN}$



9-rasm. Tanda ipi deformatsiyasining boshlang'ich taranglik P_0 ning ikkita qiymatida vaqt bo'yicha o'zgarishi

$P_0 = 0$

$P_0 = 10 \text{cN}$



10-rasm. Zarba ta'sirida tanda ipining dinamik tarangligini boshlang'ich taranglik P_0 ning ikkita qiymatida vaqt bo'yicha o'zgarishi

Hisob natijalardan quyidagi xulosalar qilish mumkin. Ipakli bint to'qish jarayonida ip zichlagich zarbasi qisqa muddatda davom etishi, deformatsiya va taranglikning qiymatlari uning ta'sirida vaqt bo'yicha intensiv oshib borishi hamda maksimum qiymatlarga erishishi kuzatilmoqda. Boshlang'ich taranglik ta'sirida deformatsiya va dinamik taranglikni kamayishi va ip zichlagich bergan zarba vaqti qisqarishi mumkin. Xususan, tanda ipini boshlang'ich tarangligi P_0 0 dan 10 cN ga

oshganda ip zichlagich bergan zarba vaqtlari 0,008 sek dan 0,0002 sek ga, dinamik taranglik esa 1 cN dan 0,2cN kamayishi kuzatilgan.

Eshilgan ipak ipigan “FAZO-LUXE” MCHJ korxonasida joylashtirilgan Xitoy halq respublikasi tomonidan chiqarilgan GNN 4-80/110 dastgohlarida polotno usulida turli tarkibli, har xil o‘lchamdagi eni 5, 7, 10, 14 sm li tibbiyot bintlari olindi. Tibbiyot bintlari eshilgan ipak iplaridan paxtali bintga mo‘ljallangan GOST 1172-93 talablari bo‘yicha ipak bint namunalari ishlab chiqarildi. Ipakli tibbiyot bintini olish bo‘yicha “Nosteril ipak bintlar” texnik shartlari tayyorlanib milliy standartga topshirildi.

Yangi turdagi, o‘rtacha buramli eshilgan ipak iplardan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida tibbiyot talablariga javob bera oladigan eni tirli xil bo‘lgan ipak bintlarini namunalari ishlab chiqarish sharoitlarida olindi, uning sifat ko‘rsatkichlari paxta bintiga nisbatan sezilarli yuqori bo‘lganligi aniqlandi hamda 9-jadvalda keltirildi.

9-jadval


To‘qima usulidagi yangi assortiment tibbiyot bintini fizik-mexanik xususiyatlari

Ko‘rsatkichlar	Talablar GOST 1172-93	O‘zMSSt. Nosteril ipakli bintlar	№1 100% ipak	№2 100% ipak	№3 100% ipak 100% paxta	№4 100% ipak 100% paxta
Ip chiziqli zichligi, tex tanda bo‘yicha arqoq bo‘yicha	paxta	eshilgan ipak iplari	2,33x8S 2,33x8S	3,23x8S 3,23x8S	2,33x8S 18,5 paxta	3,23x8S 26,0 paxta
Uzunligi, m; eni, sm;	3±10 3±16	3±14 3±16	5 10	5 10	5 10	5 10
10 sm iplar soni, tanda arqoq	98-120 1	90-160 70-120	90 70	90 70	90 62	90 38
Uzilish kuchi, N	69	110-430	419	420	405	410
Kapillyarlik, kamida. sm/soat	7,0	11,3	10,5	10,2	9,8	10,3
Oqligi, kam emas, %	70	80	80	80	75	75
PH suv tortishi	neytral	neytral	neytral	neytral	neytral	neytral
To‘qilishi	POLOTNOLI					

9-jadvalda tanda bo‘yicha 90 ta va arqoq bo‘yicha 1 ta ip ishlatilib olingan 4 xil namunadagi bintlar ko‘rsatkichlari keltirilgan. **№1** namunadagi bintni tanda va arqog‘ga 18,6 tex li eshilgan ipak ipi ishlatilgan, buramlar soni 500 br/m, uzilish kuchi 419 N, suv o‘tkazuvchanligi (kapillyarnost) 10,5 sm/s, oqligi 80 %. **№2** namunadagi bintni tanda va arqog‘ga 25,8 tex li eshilgan ipak ipi ishlatilgan, buramlar soni 500 br/m, uzilish kuchi 420 N, suv o‘tkazuvchanligi (kapillyarnost) 10,2 sm/s, oqligi 80 %. **№3** namunadagi bintni tandasiga 18,6 tex li eshilgan ipak ipi va arqog‘ga 18,5 tex li paxta ipi ishlatilgan, buramlar soni 500 br/m, uzilish kuchi 405 N, suv o‘tkazuvchanligi (kapillyarnost) 9,8 sm/s, oqligi 75 % bo‘ldi. **№4** namunadagi bintni tandasiga 25,8 tex li eshilgan ipak ipi va arqog‘ga 26,0 tex li paxta ipi ishlatilgan, buramlar soni 350 br/m, uzilish kuchi 410 N, suv o‘tkazuvchanligi (kapillyarnost)

10,3 sm/s, oqligi 75 % bo'ldi. Natijalardan kelib chiqib eshilgan iplarni nisbiy uzilish kuchlari ham ipakka nisbatan 2,33x3 holatda deyarli 11%, 3,23x8 holatda 16% yuqori, uzilishdagi cho'zilishi esa mos ravishda 12,5% va 13,3% yuqori bo'ldi. Olingan natijalar bo'yicha turli xil ipak bintlarining sifat ko'rsatkichlari paxtali tibbiyot bintiga mos ekanligi aniqlandi.

“ASKLEPIY-SVIFT” MCHJ korxonasida yigirilgan ipak ipi va qaynatilgan eshilgan ipak iplaridan YTB-2/300 tanda to'quv mashinasida trikotaj usullarida turli tarkibli, har xil o'lchamdagi tibbiyot bintlari ishlab chiqarildi. Trikotaj usulida bint ishlab chiqarish texnologik jarayonlari 8-rasmda keltirilgan.



11-rasm. Yigirilgan ipak ipi va qaynatilgan eshilgan ipak iplaridan yangi bint ishlab chiqarish texnologik jarayonlar ketma-ketligi

Trikotaj usulida bint olish uchun chiziqli zichligi 7,14 x 2 tex yigirilgan ipak ipini tanlab olindi. Yigirilgan ipak ipi 14,28 tex li va qaynatilgan eshilgan ipak ipini har biridan eni 5, 7, 10, 14 sm li namunadagi yigirilgan va eshilgan ipak bintlarini fizik-mexanik ko'rsatkichlari 10-jadvalda keltirilgan.


10-jadval

Yigirilgan ipak ipi va qaynatilgan eshilgan ipak iplaridan trikotaj o'rilishidagi yangi assortiment tibbiyot bintini fizik-mexanik xususiyatlari


Ko'rsatkichlar	GOST 16977-71	O'zMSt. "Nosteril ipakli bintlar"	№1 yigirilgan ipak iplari	№2 yigirilgan ipak iplari	№3 yigirilgan ipak iplari	№4 eshilgan ipak iplari	№5 eshilgan ipak iplari	№6 eshilgan ipak iplari
Ip chiziqli zichligi, tex tanda bo'yicha arqoq bo'yicha	18,5 paxta	Qaynatilgan eshilgan ipak iplari, yigirilgan ipak iplari	7,14x2 7,14x2	7,14x2 7,14x2	7,14x2 7,14x2	3,23x8 3,23x8	2,33x3 2,33x3	2,33x8 2,33x8
Uzunligi, m; eni, sm;	3±10 3±16	3±14 3±16	3±14 3±16	5 10	5 10	5 10	5 10	5 10
iplar soni, tanda bo'yicha	98-120	20-90	43,0	20,0	83,0	43,0	20	83,0
Uzilish kuchi, N	69	100-430	370	365	390	419	366	415
Kapillyarlik, kamida, sm/soat	7,0	10,2	13	13	13	11,7	10,5	11,9
Oqligi, kam emas, %	70	80	80	80	80	85	85	85
PH	neytral	neytral	neytral	neytral	neytral	neytral	neytral	neytral
To'qilishi		TRIKOTAJ						

10-jadval natijalariga ko'ra GOST 1172-93 talablari bo'yicha tekshirilganda №1 namunadagi bintni buramlar soni 750 br/m; iplar soni tanda bo'yicha 43 ta; iplar soni arqoq bo'yicha 1 ta; uzilish kuchi 390 N; suv o'tkazuvchanligi (kapillyarnost) 13 sm/s; №2 namunadagi bintni buramlar soni 750 br/m; iplar soni tanda bo'yicha 20 ta; iplar soni arqoq bo'yicha 1 ta; uzilish kuchi 365 N; suv o'tkazuvchanligi (kapillyarnost) 13 sm/s; №3 namunadagi bintni buramlar soni 750 br/m; iplar soni tanda bo'yicha 83 ta; iplar soni arqoq bo'yicha 1 ta; uzilish kuchi 390 N; suv o'tkazuvchanligi (kapillyarnost) 13 sm/s; №4 namunadagi bintni buramlar soni 500 br/m; iplar soni tanda bo'yicha 43 ta; iplar soni arqoq bo'yicha 1 ta; uzilish kuchi 419 N; suv o'tkazuvchanligi (kapillyarnost) 11,7 sm/s; №5 namunadagi bintni buramlar soni 350 br/m; iplar soni tanda bo'yicha 20 ta; iplar soni arqoq bo'yicha 1 ta; uzilish kuchi 366 N; suv o'tkazuvchanligi (kapillyarnost) 10,5 sm/s va №6 namunadagi bintni buramlar soni 350 br/m; iplar soni tanda bo'yicha 83 ta; iplar soni arqoq bo'yicha 1 ta; uzilish kuchi 415 N; suv o'tkazuvchanligi (kapillyarnost) 11,9 sm/s bo'ldi. Tibbiyot bintini ishlab chiqarish usuliga O'zbekiston respublikasi intellektual mulk agentligidan ixtiroga №IAP05838 patenti olingan.

Tibbiyot bintlarini 6 xil namunalarini kapillyarlik va havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichlari 12-13-rasmda berilgan. Bu yerda 1-dan 3-gacha bo'lgan variantlar yigirilgan ipak iplaridan olingan va 4-dan 6-gacha bo'lgan variantlar qaynatilgan eshilgan ipak iplaridan olingan tibbiyot bintlridir.



12-rasm. To'qima namunalarini kapilyarlik darajasi




13-rasm. To'qima namunalarini havo o'tkazuvchanligi

12-13-rasmlardan va o'tkazilgan tajriba natijalaridan shuni ko'rish mumkinki, ishlab chiqarilgan ipakli bintlarning kapillyarligi va havo o'tkazuvchanligi standart

talablariga mos kelishi aniqlandi. Toshkent davlat stomatologiya institutini “Mikrobiologiya va immunologiya” laboratoriyasida ba’zi mikroblarni eshilgan ipak va yigirilgan ipak iplaridan tayyorlangan tibbiyot bintlariga sezgirlikni o’rganildi. Antibakterial faolligini o’rganishda mikrobiologik tadqiqotlar asosida yiringli yallig’lanish jarayonining yigirilgan va eshilgan ipak ipli bintlardan foydalanish mumkinligi to’g’risida dalolatnomalar olindi.

Dissertatsiyaning **“Yangi assortimentdagi ipakli tibbiyot mahsulotlari xususiyatlarini tadqiq etish”** deb nomlangan beshinchi bobi ipakli tibbiyot bog’lov materiallarini xususiyatlarini tadqiqi, takomillashtirilgan texnologiyani ishlab chiqarishga tadbiq etishdan olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik hisobiga bag’ishlangan.

Ishlab chiqarilgan eni turli xil bo’lgan ipakli bintlarni gigroskopik xususiyatlari o’rganildi. Tajriba uchun turli tarkibdagi bog’lov materiallaridan foydalanildi. Bular 1-namuna nazorat binti, 2-namuna tanda va arqog’i 100% ipakli tibbiyot binti, 3-namuna tandasiga 18,6 tex li eshilgan ipak ipi va arqog’ga 18,5 tex li paxta ipi va 4-namuna tandasiga 25,8 tex li eshilgan ipak ipi va arqog’ga 28,0 tex li paxta ipi ishlatilgan bog’lov materiallaridir. Tajriba natijalari 14-rasmda keltirilgan.



14-rasm. Gigroskopik xususiyatlarining shimib olingan suv vazni

Tajriba natijasidan shu malum bo’ldiki, 10 soniya ichida paxtali tibbiyot bintida shimib olingan suvning vazni 0,483 mg ni tashkil qildi. 100% ipakli bog’lov materiali shimib olingan suvning vazni 1,861 mg bo’ldi. Tajriba davomida bog’lov materialining kapillyarligini 10 daqiqa ichida nazoratdagi va tajribadagi tibbiyot bintlari kaliy bixromatga botirib qo’yilgan. Olingan natijaga ko’ra, nazorat paxtali bintida kaliy bixromat $4,93 \pm 0,42$ mm ga ko’tarildi. Tajriba natijasida olingan ko’rsatgichlar 11-jadvalda ko’rsatildi.

Tekshirilayotgan 100% li ipak bintida kaliy bixromatga botirilganda $9,67 \pm 0,20$ mm ga ko’tarildi. Bu ko’rsatgich nazoratga nisbatan 1,9 barobar ko’p. Ipak (18,6 tex) - paxta (18,5 tex) dan iborat bog’lov materialining kapillyarlik ko’rsatgichi $9,25 \pm 0,20$ mm ni tashkil qildi.

11-jadval

Ipakli tibbiyot bog’lov materiallarini kapillyarlik xususiyatlari

Guruhlar	10 minutdan so’ng, mm	60 minutdan so’ng, mm
1. Bint (nazorat) paxta 100%	$4,93 \pm 0,42$	$8,67 \pm 0,18$
2. Ipak 100%	$9,67 \pm 0,20^*$	$16,25 \pm 0,31^*$
3. Ipak (18,6 tex) - paxta (18,5 tex)	$9,25 \pm 0,20^*$	$13,33 \pm 0,16^*$
4. Ipak (25,8 tex) - paxta (26,0 tex)	$9,0 \pm 0,10^*$	$14,48 \pm 0,14^*$

Ilova :* Tibbiyot bintga nisbatan statistik ishoralarni farqi $R < 0,05\%$

Bu ko'rsatgich nazoratga nisbatan 1,8 barobar ko'p kapillyarlik xususiyatini aks ettirdi. Ipak (25,8 tex) - paxta (26,0 tex) bog'lov materiali $9,0 \pm 0,1$ mm ko'tarildi. Solishtirma tahlilga ko'ra bu ko'rsatgich nazoratga nisbatan 1,77 barobar ko'p ekanligi aniqlandi.

Tibbiyotda tadqiqotlar ikki xil usulda olib boriladi. Birinchisi klinikgacha va ikkinchisi klinik usul. Klinikgacha bo'lgan tadqiqotlarni inson tanasiga yaqin bo'lgan jonivorlarda olib boriladi. Klinikda insonlarda o'tkaziladi. Bu yerda jonivorlarda maxsus yara maydonlari hosil qilinib, ishlab chiqarilgan ipakli tibbiyot bintlaridan foydalanilgan (12-jadval).


12-jadval

Ipak tibbiyot bintlaridan foydalanilganda yaralar maydonining bitish darajasi

Tajriba kunlari	Nazorat tibbiyot binti		Ipak 100%		Ipak 100%- paxta 100%	
	Yara maydoni mm ²	Yara bitish darajasi %	Yara maydoni mm ²	Yara bitish darajasi %	Yara maydoni mm ²	Yara bitish darajasi %
1-kun	180,6 $\pm$ 2,4	-	180,7 $\pm$ 3,9	-	180,6 $\pm$ 2,4	$\pm$
4-kun	128,2 $\pm$ 9,7	9,8 $\pm$ 1,8	118,3 $\pm$ 0,5	34,4 $\pm$ 1,4	113,2 $\pm$ 14,2	37,0 $\pm$ 8,3
7-kun	122,2 $\pm$ 7,2	32,4 $\pm$ 3,5	68,7 $\pm$ 6,5*	61,6 $\pm$ 4,1*	96,2 $\pm$ 12,9	46,4 $\pm$ 7,6
10-kun	42,9 $\pm$ 4,0	76,3 $\pm$ 2,0	52,9 $\pm$ 13,0	70,4 $\pm$ 7,5	43,8 $\pm$ 9,9	75,5 $\pm$ 5,7
13-kun	26,2 $\pm$ 4,9	85,6 $\pm$ 2,5	13,9 $\pm$ 1,7	92,3 $\pm$ 0,8*	19,6 $\pm$ 2,8	89,1 $\pm$ 1,5
15-kun	10,2 $\pm$ 3,0	94,3 $\pm$ 1,7	7,7 $\pm$ 2,4	95,7 $\pm$ 1,3	2,5 $\pm$ 0,8	98,6 $\pm$ 0,5
17-kun	0,3 $\pm$ 0,2	95,9 $\pm$ 0,1	-	-	0,8 $\pm$ 0,1	99,6 $\pm$ 0,4
21-kun	0,2 $\pm$ 0,1	93,8 $\pm$ 0,1	-	-	-	-
22-kun	-	-	-	-	-	-

12-jadval natijalaridan shuni ko'rish mumkinki, paxtali buntlarga nisbatan ipakli bintlarni ishlatilganda hosil qilingan yaralarni bitishi tez bo'lgan. Bunda 100% paxtali binti 22-kunda, 100% ipakli binti 17-kunda, 100% ipak va 100% paxtali binti 21-kunda yaralar bitgan. Shundan kelib chiqib, paxtali bintga nisbatan ipakli bint ishlatilsa jarohatni yiringlardan tez tozaladi va 3-4 oldin yarani bitishi aniqlandi. Sinov natijalari asosida O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash vazirligini Toshkent farmatsevtika institutining "Farmakologiya va klinik farmatsiya" kafedrasi tomonidan ishlab chiqarilgan ipakli bintlarini tibbiyot birlashmalida ishlatish mumkinligi to'g'risidagi tavsiyasi olindi.


Navbatdagi tadqiqotlar O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi Toshkent Davlat stomatologiya institutining "Yuz jag' sohasi xirurgiya" kattalar bo'limida klinik tajriba sinov natijalari olib borildi. Klinik tadqiqotlar qaynatilgan ipak to'qimasining bog'lov materiali sifatida yuz va bo'yin sohasining turli yiringli-yallig'lanish kasalliklariga chalingan 18 yoshdan 42 yoshgacha bo'lgan 68 nafar bemorni kuzatish va davolash asosida olib borildi. Steril ipak to'qimasi ya'ni ipak salftokalar bilan ishlov berilganda, yara tarkibidagi mikroblarning sezgirligini o'rganish edi. Ushbu tadqiqotlarning materiallari, 15-rasmda keltirilgan.



15-rasm. Ipak salftkalarining mikrobarga sezuvchanlik holati

15-rasm natijalari, tibbiyot paxta doka to'qimasi bog'lovlarining samarasi pastligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ipak tibbiyot salftkalari faqat gramm-manfiy floraga nisbatan kuchliroq antibakterial ta'sirga ega va gramm-musbat flora va zamburug'lar tadqiqotning 3-kunida ham saqlanib qoladi. Yuz-jag' sohadagi yiringliyallig'lanish jarayonlarida jarohatni davolashda qaynatilgan ipak tibbiyot salftkasidan foydalaniganda yarani tozalash jarayonini sezilarli darajada o'zgartirdi. Ya'ni teri to'qimalarini o'sishini tezlashtirdi. Jadval natijalari, tibbiyot paxta doka to'qimasi bog'lovlarining samarasi pastligini va ipak tibbiyot dokasi salftkalari kuchli antibakterial ta'sirga ega ekanligini ko'rsatdi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida joriy qilish AKTlari olindi.

Shuningdek, Toshkent davlat stomatologiya instituti va Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti o'rtasidagi o'zaro kelishuvga muvofiq, institutning "Mikrobiologiya va immunologiya" laboratoriyasida turli konsentratsiyalarda 0,25; 0,75; 1,25 va 2,0% eritmalarida kumush suyuqlik bilan shimdirilgan ipak nam salftkalarini 10 ta mikroorganizmning in Vitro! sharoitida antibakterial faolligini aniqlash uchun mikrobiologik tadqiqotlar o'tkazildi (16-rasm).




16-rasm. Ipak salftkalarida mikrobial o'sish ushlanish zonasi


Tadqiqotlar natijasida, 0,75% konsentratsiyali kumush suyuqligi bilan shimdirilgan nam ipak salftkalardan foydalanish barcha o'rganilayotgan mikrobial guruhlariga qarshi antimikrob faollikni ko'rsatdi, ammo faollik darajasi ko'pchilik mikrobarga nisbatan ancha yuqoriligini namoyon qildi. O'tkazilgan barcha mikrobiologik tadqiqotlar orasida kumush suyuqlikning eng yuqori antibakterial faolligi boshqa rejimlarga nisbatan nam ipak salftkalardan foydalanish orqali namoyon bo'lishi ehtimoli yuqoriligini ko'rsatdi. Tabiiyki, kumush suyuqlik bilan shimdirilgan va nam sharoitlarda ishlov berilgan ipak salftkalar quritilganda, nisbatan

ancha yuqori miqdorda kumush ionlarini saqlab qoldi. Kumush suyuqlik bilan shimdirilgan nam ipak salfetkalarini qantli diabet kasalliklarida qo'llanish uchun tavsiya berildi.


Bundan tashqari shu institutning "Mikrobiologiya va immunologiya" laboratoriyasida ba'zi mikroblarning turli konsentratsiyadagi rux suyuqligida (0,1-0,5-1,0%) shimdirilgan eni 3 sm li ipak bintlarni sezgirligini o'rganish maqsadida mikrobiologik tadqiqotlar o'tkazildi. Barcha konsentratsiyadagi rux suyuqligi bilan shimdirilgan bintlarning tekshirish natijalari 17, 18 va 19-rasmlarda keltirilgan.



17-rasm. Rux 0,1% shimdirilgan ipakli tibbiyot bintiga mikroblarni tekshirish



18-rasm. Rux 0,5% shimdirilgan ipakli tibbiyot bintiga mikroblarni tekshirish



19-rasm. Rux 1,0% shimdirilgan ipakli tibbiyot bintiga mikroblarni tekshirish

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yiringli yallig'lanish jarayonlarida 0,5% va 1,0% li rux moddasi bilan shimdirilgan ipak bintlaridan mikroblarga qarshi eng yuqori antibakterial va antifungal faollikni ko'rsatdi. Toshkent Davlat stomatologiya institutining "Mikrobiologiya va immunologiya" laboratoriyasida o'tkazilgan tadqiqotlar asosida rux suyuqligi bilan shimdirilgan ipak bintlaridan lekaplaster sifatida foydalanish mumkinligi to'g'risidagi dalolatnomalar olindi.

Ilmiy tadqiqot ishini natijalarini amaliyotga qo'llash orqali olinadigan umumiy iqtisodiy samaradorlik 13-jadvalda keltirilgan.

Kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik (2024 y. narxi)

№	Nomi	Mahsulot miqdori	Foyda
1	Ish unumdorligini oshishi. Chuvish tezligini 10% yuqoriligi	Yiliga 100 kg qo'shimcha xom ipak ishlab chiqarib sotishdan	Ichki bozorda: 8400 ming so'mga chetga sotishdan 9600 ming so'm
2	3A-sinfiga mos xom ipak olish (1 va takroriy yetishtirilgan pillalardan)	100 kg ishlab chiqarib sotishdan	Ichki bozorda 4800 ming so'm tashqi bozorda 14400 ming so'm
3	Ipak dokasi	10 ming m ishlab chiqarib sotishdan	15600 ming so'm
4	Ipak binti bitta dastgohda bir yilda ishlab chiqarib sotishdan	108400 m ishlab chiqarib sotishdan	63400 ming so'm
5	Jami	Mahsulotlar yig'indisi	92200 ming so'm (ichki bozorda)
6	Ijtimoiy samaradorlik: yiringli jag'-yuz sohasi kasalligini davolashda	Ipak bintlar qo'llanilganda jarohatni yiringlardan tez tozalaydi va tuzalishini 3-4 kunga tezlashtirdi. Atrofida mikroorganizmlar paydo bo'lmay, bu ipak bintini antiseptik xususiyatini tasdiqlaydi.	

XULOSA

“Tibbiyotda qo'llaniladigan ipakli bog'lovchi mahsulotlarni yangi turlarini yaratishning ilmiy-texnologik asoslari” mavzusida olib borilgan tadqiqot ishi bo'yicha quyidagi xulosalarga erishildi:

1. Adabiyot tahlillaridan ma'lum bo'lishicha, tabiiy ipak va kimyoviy tolalardan jahon bozorida turli chiziqli zichlikdagi eshilgan iplar assortimenti mingdan ziyod bo'lishiga qaramasdan, adabiyotlar va internet ma'lumotlarida iplarni ishlab chiqarish va ulardan tibbiyot ipak mahsulotlari uchun xomashyo tayyorlash usuli va texnologiyalariga oid axborotlar deyarli keltirilmagan, ipakning tolali chiqindilaridan olingan yigirilgan ipakni xususiyatlari, ularni tibbiyot mahsulotlari uchun mosligi asoslanmagan.

2. Tibbiyot bog'lov vositalarini olish texnikasi va texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili asosida inson organizmiga mutlaqo zararli ta'sirlarning yo'qligi aniqlandi. Adabiyotlar tahlili natijasida, yangi tibbiyot mahsulotlari namunasini olishning ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish zarurligi aniqlandi. Steril bo'lmagan tibbiyot mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha meyoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish va Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli organlari tomonidan tasdiqlash zarurati mavjud.

3. Chet el tajribalari asosida bahorgi-kuzgi mavsumlarda to'rt marotabagacha ipak qurtini parvarish qilish, pilla ishlab chiqarish hajmiy miqdorini ko'paytiradi. Mavsumda takroriy yetishtirilgan pillalar qobig'ini texnologik xususiyatlari o'rganilib, davlatlararo GOST 31256-2004 texnik talablarida keltirilgan navlarga ajratish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

4. Mahalliy sharoitda 1- va 2-mavsumda yetishtirilgan Ipakchi-1xIpakchi-2 hamda Xitoy ipak qurti duragaylaridan, olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida pillalar ipini o'rtacha umumiy uzunligi 1198 metrdan, uzluksiz uzunligi esa

850 metrdan yuqori bo'lgan nuqsonsiz pillalardan xalqaro standartni "3A" va "4A" talablariga javob beruvchi hamda 3- va 4-mavsumda yetishtirilgan pillalardan mos ravishda xalqaro standartni "A" va "B" sinf talabiga javob bera oladigan xom ipak ishlab chiqarish mumkinligi isbotlangan.

5. Yangi assortimentdagi ipakli tibbiyot bintlarining ishlab chiqarish uchun xomashyoni tayyorlash usuli ishlab chiqildi. Bunda ratsional parametrlar x_1 - buramlar soni 500 br/m, x_2 - seritsin miqdori 7%, x_3 – iplar soni 8 dona bo'lganda uzish kuchi 420 cN ga teng bo'lgan tibbiyot uchun ipak bintlari assortimentini tayyorlash tavsiya etildi.

6. Ipak doka namunalari olingan va bu olingan dokalardan nafas olish yo'llarini himoyalovchi niqob ishlab chiqarildi va foydali model uchun talabnoma topshirildi. Tabiiy ipakdan eni turli xil bo'lgan polotnoli va trikotaj to'qima usulida tibbiyot binti ishlab chiqarilgan. Ushbu usulga ixtiroga №IAP05838 patenti olingan.

7. Toshkent davlat stomatologiya institutining "Mikrobiologiya va immunologiya" laboratoriyasida eshilgan va yigirilgan ipak iplaridan tayyorlangan tibbiyot bintlariga mikroblarni sezgirliги o'rganildi va tibbiyotda bog'lovchi material sifatida yiringli yallig'lanish jarayonida kuygan yaralarga, turli xil jarohatlarga bog'lab ishlatish mumkinligi to'g'risida xulosa olingan. institutning "Mikrobiologiya va immunologiya" laboratoriyasida o'tkazilgan tadqiqotlar asosida kumush suyuqligi bilan shimdirilgan tibbiyot salftkalaridan nam salftka va rux suyuqligi bilan shimdirilgan ipak bintlaridan lekaplaster sifatida foydalanish mumkinligi to'g'risidagi dalolatnomalar olindi.

8. Ipakli bint to'qish jarayonida ip zichlagich zarbasi orqali tuzilgan regression tenglamalar yordamida nazariy hisoblar to'qimani tarangligiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan. Tanda ipini boshlang'ich tarangligi P_0 0 dan 10 cN ga oshganda ip zichlagich bergan zarba vaqtlari 0,008 sek dan 0,0002 sek ga, dinamik taranglik esa 1 cN da 0,2 cN kamaytirish ratsional ekanligi aniqlandi.

9. Ipakli tibbiyot bintlarini amaliyotda sinalib, yara bitishi darajasi va muddati bo'yicha ishlar amalga oshirilganda paxtali buntlarga nisbatan ipakli bintlarni ishlatilganda hosil qilingan yaralarni bitishi 100% ipakli bintida 17-kunda tuzalgan. Paxtali bintga nisbatan ipakli bint ishlatilsa 3-4 oldin yarani bitishi sinov natijalari asosida O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash vazirligini Toshkent farmatsevtika institutining "Farmakologiya va klinik farmatsiya" kafedrasidan ishlab chiqarilgan ipakli bintlarini tibbiyot birlashmalida ishlatish mumkinligi to'g'risidagi dalolatnoma olingan.

10. Kelajakda mahalliy xomashyo bo'lgan tabiiy ipakdan raqobatbardosh xaridorgir tayyor mahsulotlar assortimentini kengaytirish va eksportga chiqarish imkoniyatlarini yaratadi. Tabiatan antiseptik xususiyatlarga ega bo'lgan ipak tibbiyot dokasi va bintlarini ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi, milliy standart asoslandi.

11. Tibbiyot binti uchun xomashyo tayyorlash texnologiyani takomillashtirishda ishchi kuchini, o'timlar qisqarishini va xomashyoni tejash hisobiga bitta bint to'qish dastgohida bir yilda 108400 m bint ishlab chiqarib sotishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlik 63,414 ming so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/2025.27.12.Т.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

УМУРЗАКОВА ХАЛИМА ХАБИБУЛЛАЕВНА

**НАУЧНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗРАБОТКИ НОВОГО
АССОРТИМЕНТА ШЕЛКОВЫХ ПЕРЕВЯЗОЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ,
ИСПОЛЪЗУЕМЫХ В МЕДИЦИНЕ**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная
обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА (DSc)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора (DSc) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академия наук Республики Узбекистан за № B2023.3.DSc/T676.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (www.titli.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Алимова Халима Алимовна
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Кадирова Дилфуза Нейматовна
доктор технических наук, профессор

Валиев Гулам Набиджанович
доктор технических наук, профессор

Батирова Азиза Негмуратовна
доктор сельскохозяйственных наук (DSc)

Ведущая организация:

Узбекский научно исследовательский институт

Защита диссертации состоится «3» сентября 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc 03/2025.27.12.T.21.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности по адресу: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон, 5. Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 222-я аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, факс: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована за №309). Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон, 5, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан «10» августа 2026 года.
(реестр Протоколов № 309 от «10» августа 2026 года).




X.X.Камилова
Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

А.З.Маматов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

Ш.Ш.Хакимов
Председатель Научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире большое внимание уделяется получению натурального шелка и производству изделий из него, а также повышению их качества путем применения новых ресурсосберегающих технологий. В ведущих странах-производителях шелка, как в Китае, Индии, Бразилии и Южной Корее достигнуты определенные успехи в производстве натурального шелка, переработке и выработке изделий¹. В исследованиях, направленных на повышение эффективности размотки коконов и производства натурального шелка, а также на совершенствование технологий, обеспечивающих конкурентоспособность продукции, особое значение имеет решение проблемы дискомфорта, причиняемого человеку нитей, прилипающими к ране во время процесса эксплуатации с использованием медицинских перевязочных материалов из натурального шелка. Поэтому одной из важных задач перед учеными является разработка технологий производства медицинских перевязочных материалов из натурального шелка и методов подготовки сырья, а также новых ассортиментов.

В странах мира, занимающихся коконовыращиванием, ведутся масштабные научно-исследовательские работы по получению качественных коконов в сезонах, модернизации процессов переработки, производстве конкурентоспособных медицинских перевязочных материалов из чистого шелка путем внедрения современной техники и технологий. В этом направлении приоритетными являются совершенствование технологий переработки повторно выращенных местных и китайских гибридных коконов. В частности, особое внимание уделяется снижению затрат за счет совершенствования процессов подготовки коконов тутового шелкопряда к размотке, повышению качества и количества производимого шелка-сырца, выявления факторов, влияющих на технологические процессы при изготовлении медицинских перевязочных материалов и установке рациональных параметров, а также разработки научно обоснованных технологий.

В нашей республике ведутся комплексные меры по развитию методов по повторному выращиванию, совершенствованию технологий получения и обработки высококачественного шелка-сырца, созданию ресурсосберегающих техники и технологий, и достигаются определенные результаты. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы предусмотрено такие важные задачи, как «...увеличить производство промышленной продукции к 2026 году за счет восполнения существующих пробелов в производстве готовых изделий из шелковых тканей, а также импортозамещающей продукции...»². При реализации этих задач важное значение имеет разработка технических требований к тутовому шелкопряду, выращиваемому в повторные сезоны и получение из него высококачественного шелка-сырца, совершенствование технологии подготовки

¹ <https://inserco.org/en/statistics>.

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы”.

сырья для шелковых медицинских перевязочных материалов и внедрение ее в производство.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, Постановлении Президента Республики Узбекистан от 29 марта 2017 года № ПП-2856 “О мерах по организации деятельности Ассоциации Узбекипаксаноат”, от 31 июля 2019 года №ПП-4411 “О дополнительных мерах по развитию глубокой переработки в шелковой отрасли”, от 17 января 2020 года №ПП-4567 “О дополнительных мерах по развитию кормовой базы тутового шелкопряда в шелководческой отрасли”, а также в других нормативно – правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий: II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Широкомасштабные научные исследовательские работы, направленные на разработку научной основы для производства высококачественного шелка-сырца из повторно выращенных коконов в местных условиях, соответствующего международным стандартам, развитие техники и технологий текстильной и легкой промышленности, создание новых видов шелковых крученых нитей, а также ее усовершенствованию ведутся в ведущих мировых научных центрах и высших учебных заведениях, в том числе в Manchester University (Англия), Ghent University (Бельгия), International Association of Silk Road University (Япония), Kyoto University (Япония), Dortmund Technical University (Германия), Sichuan university (Китай), University of Piraeus (Греция), South Indian Textile Research Association (Индия), Ташкентским институтом текстильной и легкой промышленности, Научно-исследовательским институтом шелководства, Узбекским научно-исследовательским институтом натуральных волокон (Узбекистан).

На основе научных исследований, проводимых в мире по совершенствованию технологии производства шелка-сырца, крученой шелковой нити, шелковых изделий и созданию новых видов шелковых перевязочных изделий, отвечающих мировым требованиям, в том числе получены следующие научные результаты: разработаны автоматизированные системы технологических процессов производства качественного шелка-сырца и видов крученой шелковых нитей, медицинских изделий (Tajima, Япония; Eton Ups, Швеция; Schonenberger, Франция; Datatron, Германия); созданы новые методы получения изделий жидкой обои из шелковых отходов (Turbo и Heberlein, Швейцария), получен высококачественный шелк-сырец, соответствующий международным стандартам, крученые шелковые нити с улучшенными качественными показателями; создана медицинская шелковая марля, медицинские шелковые салфетки, медицинские бинты и другие ткани

(Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности, Узбекский научно-исследовательский институт натуральных волокон).

В мире проводятся ряд исследований по созданию и совершенствованию технологии производства высококачественных шелковых изделий, в том числе по следующим приоритетным направлениям: совершенствование технологии получения высококачественного шелка-сырца на основе новых пород и гибридных коконов с повышенной шелконочностью; создание нитей, по свойствам схожих с натуральным шелком; совершенствование технологий размотки коконов, определение оптимальных размеров коконов, производства новых медицинских изделий из высококачественного шелка-сырца, шелковых тканей и волокнистых шелковых отходов, а также создание новых видов их ассортимента.

Степень изученности проблемы. Научными исследованиями по выращиванию коконов, совершенствованию технологии размотки коконов и получения высококачественной продукции, отвечающего высоким требованиям, за рубежом занимались Lan Cheng, Zhi Li, S. Kumar Gupta, Bej G., Wang H., Chen S., Loreta D., Rajendran S., K.D.Rajat, Y.Zhiyong, M.Arumugam, L.Min, S.Gunze, N.Hazarika, C.Minano, H.Harada J.Mo, S.Pan, Ajmeri J., Islam S., Yarin A., M.Harfa, J.Rudvisaik, B.Frantisek, Sh.Ales, X.Cao, M.Gui, L.Wang, Э.Тимошина, Федорова Н., С.Д.Николаева и другие ученые.

По расширению видов шелковых нитей, совершенствованию безотходных технологий кручения шелка, прядения и шелководства, а также созданию теоретической и практической основы для организации процесса подготовки нитей на современных машинах занимались ряд ученые, как Усенко В.А., Кукин Г.К., Рубинов Э.Б., Бурнашев Р.З., Алимова Х.А., Хаимова Р.М., Ниязалиев М., Поздняков Г.С., Зикова Ф.В., Бурнашев И.З., Умаров Ш.Р., Насриллаев У.Н, Қодиров Ш.А., Тожиев Э.Х., Икрамов З.И., Ахунбабаев О.А., Гуламов А.Э., Исламбекова Н.М, Набиджанова Н.Н., Ахмедов Ж.А., Авазов К.Р., Усмонова Ш.А., Закирова Д.Х. и внесли достойный вклад в развитие науки в этой области.

Однако, принимая во внимание имеющиеся на данный момент исследования, было установлено, что необходимо изучить теоретические основы технологии получения шелка-сырца из повторно выращенных коконов, отвечающего требованиям международного стандарта «3А», «4А», а также усовершенствовать методы подготовки сырья из них, разработать медицинскую марлю и бинты из натурального шелка, а также использовать и испытывать их в медицинской практике.

Связь диссертационного исследования с научно-исследовательскими работами высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках планов научно-исследовательских работ Ташкентского института текстильной и легкой промышленности А-3-5 “Разработка методов и технологий производства новых конкурентоспособных видов продукции на основе нанотехнологий шелка” (2015-2017 гг.), F-A-2018-026 “Разработка методов и технологий производства новых видов продукции с применением натурального шелка и его наночастиц,

используемых в медицине и бытовых нуждах” (2018-2020), 92/14 «Усовершенствование технологий производства конкурентоспособной продукции из натурального шелка» (2021), в рамках проектов Всемирного банка на тему “Development of antimicrobial nonwoven products from silk waste for medical applications” (2022-2024).

Целью исследования является обоснование технологии создания новых видов медицинских перевязочных материалов из натурального шелка.

Задачи исследования:

на основе литературных обзор изучить виды медицинских перевязочных материалов, состояние их производства и перспективы определения технологий;

теоретическое исследование технологического процесса формирования шелка-сырца, отвечающего требованиям международных стандартов «3А» и «4А», путем определения технологических свойств оболочки коконов Ипакчи-1 х Ипакчи-2 и китайского гибрида, выращенных в местных условиях;

теоретическое и практическое обоснование соответствия технологических показателей шелка-сырца требованиям производства медицинских перевязочных изделий;

усовершенствование технологий подготовки сырья при производстве новых видов медицинских шелковых перевязочных изделий;

теоретическое исследование факторов, влияющих на прочность и обрывность нитей в процессе ткачества и получение качественного полотна;

получение образцов новых видов медицинских шелковых изделий, изучение их физико-механических и гигиенических свойств;

разработка и обоснование национального стандарта для новых видов медицинских шелковых перевязочных изделий.

Объектом исследования выбраны китайские и Ипакчи-1 х Ипакчи-2 гибридные коконы, выращенные повторные сезоны в местных условиях, а также медицинские перевязочные материалы, изготовленные из шелка-сырца линейной плотностью 2,33; 3,23 текс, размотанные из них.

Предметом исследования являются технологии подготовки сырья для новых медицинских перевязочных материалов из шелка, а также методы и средства процесса.

